

O'ZBEKISTONDA GENDER MUNOSABATLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Dilnoza Uralovna MAHMUDBOYEVA

mustaqil izlanuvchi

Guliston davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston

bahodirmahmudboyev@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston hududida gender munosabatlarning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, an'anaviy qadriyatlar va madaniy omillar gender munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatgani, erkak va ayol rollarining o'zgarish dinamikasi yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va ilmiy adabiyotlarga tayangan holda gender tengligi masalasi tahlil qilinib, turli davrlarda ayollar va erkaklarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va mavqei ochib beriladi. Shuningdek, madaniyat, din, urf-odatlar va davlat siyosatining gender munosabatlariga ta'siri muhokama qilinadi. O'zbekiston tarixidagi gender munosabatlarini kengroq o'rganish va hozirgi jamiyat bilan bog'lash uchun xulosalar chiqariladi.

Tayanch so'zlar: gender munosabatlari, tarixiy shakllanish, gender rollari, O'zbekiston tarixi, ayollar mavqei, patriarxal tuzilma, ijtimoiy rivojlanish.

ИСТОРИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Дилноза Ураловна МАХМУДБОЕВА

Независимый исследователь

Гулистанский государственный университет

Гулистан, Узбекистан

bahodirmahmudboyev@gmail.com

Аннотация

В данной статье рассматривается историческое формирование и развитие гендерных отношений на территории Узбекистана. Анализируются влияние социальной структуры общества, традиционных ценностей и культурных факторов на гендерные отношения, а также динамика изменения ролей мужчин и женщин. Исследование основано на исторических источниках, археологических находках и научной литературе, что позволяет глубже понять вопросы гендерного равенства и положение женщин и мужчин в обществе на разных этапах истории. Кроме того, обсуждается влияние культуры, религии, обычаев и государственной политики на гендерные отношения. Данная статья способствует более глубокому изучению гендерных отношений в истории Узбекистана и помогает проводить параллели с современным обществом.

Ключевые слова: гендерные отношения, историческое формирование, гендерные роли, история Узбекистана, положение женщин, патриархальная структура, социальное развитие.

Gender tushunchasining tarixiy-tahlil nuqtai nazaridan tahlili, tarix fani doirasida qadimdan insonning ijtimoiy rollari va jamiyatdagi vazifalari bo'yicha shakllangan tasavvurlarni o'rganishga asoslangan. Gender kontseptsiyasining asosiy tushunchalari va asoslari uzoq tarixiy davrlarda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va diniy taraqqiyotiga bog'liq. Arxeologik va antropologik ma'lumotlarga asoslanib, olimlar inson jamiyatlari o'rtasidagi ijtimoiy vazifalar taqsimoti va yozuvsiz davrlarda ham shakllangan o'zgarishlarni qayta tiklashga harakat qildilar.

Qadimgi jamiyatlardagi hokimiyat tizimlari, misol uchun, Misr va Mesopotamiyada podshohlar hukmronligida amalga oshirilgan boshqaruv, gender vazifalarini mustahkamlashda muhim o'rin tutgan. Bunday madaniyatlarda erkaklar hokimiyat va himoya uchun javobgar bo'lsa, ayollar uy-ro'zg'or ishlarida, bolalarni tarbiyalashda muhim mas'uliyatga ega bo'lishgan. Shunday qilib, tarix fanida gender tushunchasini tadqiq qilish orqali jamiyatdagi ijtimoiy rol va vazifalarning qanday shakllanganini ko'rish mumkin. Tadqiqotchilar qadimiy yozma va arxeologik manbalardan foydalanib, gender rollari, ularning shakllanishi va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri haqida umumiy xulosalar chiqarishga muvaffaq bo'ldilar.

Ilk neolit dafnlarining tosh qurollarini yaqinda o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnatning gender taqsimoti Yevropada qishloq xo'jaligiga o'tish bilan parallel ravishda paydo bo'lgan. Ispaniya va ingliz olimlari 400 dan ortiq tosh qurollarni tahlil qilib, 5000 yil avval erkaklar va ayollar turli xil, ammo bir-birini to'ldiruvchi ish turlarini bajarganliklarini aniqladilar. Shunday qilib, erkaklar yog'ochga ishlov berish, ovchilik va harbiy ishlar bilan bog'liq asboblardan, ayollar esa terini terish va qayta ishlash uchun asboblardan dafn etilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bu davrda jinsiy mehnat taqsimoti gender tengsizlik belgisi emas, balki moslashuvchan va murakkab ijtimoiy tashkilotning dalilidir. Qishloq xo'jaligi jamiyatlarida ayollarning o'rni muhimligini ta'kidlab, ular ushbu jamoalar rivojiga faol hissa qo'shganini va og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanganini ta'kidladi. Ayollar qabrlarida mehnat qurollarining mavjudligi,

ayniqsa, ilk dehqonchilik jamiyatlarida ayollar mehnati yuksak baholangan va ijtimoiy ahamiyatga ega deb e'tirof etilganidan dalolat beradi. Ushbu topilmalar shuni ko'rsatadiki, agrar davrning boshida gender rollari jamiyatning omon qolishi va gullab-yashnashi uchun erkaklar va ayollar vazifalarining bir-birini to'ldirish xususiyatini ta'kidlab, ijtimoiy tuzilishda muhim funktsiyalarni bajargan [4;367].

Tarix nuqtai-nazaridan gender tushunchasini tahlil qilishda Yevropadagi gender muammosi va uning ilk ko'tarilishi qadimgi Yunon sivilizatsiyasida ko'zga tashlanadi. Ushbu madaniyatda ayollar erkaklar bilan teng huquqlarga ega emasdilar va ularning jamiyatdagi roli uy-xo'jalik ishlari bilan cheklangan edi. Qadimgi Afina jamiyatida ayollar erkaklar tomonidan boshqarilardi va ularning jamiyatdagi huquqlari chegaralangan edi. Spartaning o'ziga xosligi shunda ediki, u yerdagi ayollar muayyan huquqlardan bahramand bo'lib, jismoniy mashqlar orqali jamiyat foydasiga xizmat qilish imkoniyatiga ega edilar. Bu yerda ayollar jismoniy kuchga ega bo'lishlari uchun alohida ahamiyat berilgan, chunki ilotlarga qarshi kuchli armiya zarur edi. Spartaning ayollar erkinligi Afina jamiyatining konservativ qismida tanqid qilingan [1;303].

Afinadagi arboblardan Aristotel ayollarning passiv, jismoniy va aqliy jihatdan erkaklardan pastligiga ishonib, ularni faqat uy-ro'zg'or ishlariga cheklangan, o'z tabiati bilan jamiyatga qo'shilmasligi kerak deb hisoblagan. Uning fikricha, ayollar tabiatan erkaklarga itoat qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi rolda yaratilgan. Platon esa, bu nuqtayi nazarga qaramasdan, ideal davlat modelini yaratar ekan, ayollarning ta'lim olishlari va turli sohalarda faoliyat olib borishlari kerakligi haqida fikr bildirgan. Platonning bu qarashlari zamonaviy feministik g'oyalarning ilk ko'rinishi sifatida qaralishi mumkin. Buning natijasida Platonning fikrlari tarixiy nuqtai nazardan gender tengligi haqidagi ilk nazariyalardan biri hisoblanadi [3].

"Avesto" qadimgi Eron zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanadi. Bu asar zardushtiylikning diniy va axloqiy qarashlarini, shuningdek, qadimgi Eron jamiyatining ijtimoiy me'yorlarini aks ettiradi. "Avesto"da gender munosabatlari, erkak va ayolning jamiyatdagi vazifalari, axloqiy tamoyillar orqali ifodalanadi.

"Avesto"da ayol va erkakning vazifalari muayyan axloqiy tamoyillar asosida belgilangan. Ayollar asosan oilani saqlash, bolalarni tarbiyalash va uyni boshqarish bilan bog'liq mas'uliyatlarga ega bo'lgan, erkaklar esa jamiyatni himoya qilish va ta'minot bilan shug'ullangan. Zardushtiylkda nikoh muqaddas hisoblanib, oilaviy hayotning ahamiyatiga katta urg'u berilgan. "Avesto"da erkak va ayolning nikohda bir-biriga nisbatan hurmati, sadoqati va mas'uliyati ta'kidlanadi. Shu ma'noda, nikoh va oilani muqaddas bir birlik deb bilish qadimgi Eron jamiyatida ham erkak, ham ayol uchun jamiyat oldidagi asosiy burchlardan biri bo'lgan.

"Avesto"da ayollar jamiyatda muhim maqomga ega bo'lib, ular ham axloqiy, ham diniy mas'uliyatlar bilan cheklanmagan. Ayollarga diniy marosimlarda qatnashish va ibodat qilish imkoniyati berilgan. Ayol va erkaklarning axloqiy mas'uliyatlari teng hisoblanib, ayollar ham o'z qilmishlari uchun axloqiy javobgarlikka ega bo'lganlar. Ayollar bilim va o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan va ma'naviy hayotda ham muhim rol o'ynaganlar. "Avesto"da ayol va erkaklar orasidagi axloqiy tenglik asosiy ahamiyatga ega. Har ikki jins vakillaridan ham poklik, sadoqat va adolat talab qilingan. Yaxshi xulq-atvor, e'tiqod va ma'naviy poklik "Avesto" ta'limotida ayol va erkakdan birdek kutilgan tamoyillar bo'lib, bu qadimgi Eron jamiyatida gender munosabatlariga adolat va mas'uliyat nuqtai nazaridan yondashilganini ko'rsatadi. "Avesto"da naslning davom ettirish jamiyatning muhim burchlaridan biri deb qaraladi. Bolalarni tarbiyalashda ayol va erkakning mas'uliyati birdek ta'kidlanadi. Oila muqaddas bir muhit deb hisoblanib, undagi har ikki tomonning o'z burchlarini sidqidildan bajarishi kutiladi. Shunday qilib, "Avesto" gender munosabatlariga ijobiy nuqtai nazardan yondashib, ayollar va erkaklarning jamiyatdagi teng maqomini ta'minlashga qaratilgan tamoyillarni o'zida aks ettiradi [2].

Eftalitlar (xunlar) davlati davrida gender munosabatlari ko'proq askarlik va jang san'atlariga bog'liq bo'lgan. Markaziy Osiyodagi ko'chmanchi xalqlarda ayollar oilada va jamiyatda muhim o'rin tutib, xo'jalik ishlarida, qishloq xo'jaligida va hatto muayyan harbiy vazifalarda qatnashganlar. Eftalitlarda ayollar

turmush qurish, oila a'zolari va farzandlar tarbiyasida asosiy vazifani bajargan bo'lsa-da, ularning kundalik hayotdagi ijtimoiy o'rni ham sezilarli bo'lgan.

Turk xoqonligi davrida gender munosabatlari muayyan darajada institusionallashtirilgan bo'lib, jamiyatda erkaklar askarlik, davlat boshqaruvi va siyosat bilan shug'ullangan. Shu bilan birga, ayollar oilada an'anaviy vazifalarni bajarishgan. Biroq, turk xalqlari urf-odatlariga ko'ra, ayollar oilada, jumladan, shaxsiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilishda erkaklar bilan tenglashgan holda qatnashgan. Turklarda ayollarning rolini yuksak qadrlash an'anasi mavjud bo'lib, bu ularning faol ijtimoiy ishtirokini ta'minlagan.

Tohiriylar davrida (IX asr boshlari) O'rta Osiyoda gender munosabatlari asosan an'anaviy tizim asosida saqlangan. Ayollar jamiyatda asosan oilaviy vazifalarga e'tibor qaratishgan. Ayollarning rollari ko'proq oilada va mahalliy hayotda bo'lgan, ammo ular jamiyatning ma'naviy sohalarida ham hissa qo'shgan. Bunda musulmonlik qadriyatlari ta'sirida ayollar oilada, ijtimoiy tarbiyada muhim o'rin tutishgan.

Temuriylar sulolasining muvaffaqiyatlari va jahon tarixida qoldirgan izlariga nazar tashlar ekanmiz, ularning bunday buyuklikka erishishida oila muhitining ahamiyati katta bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Amir Temurning shaxs sifatida shakllanishi va uning avlodlarida oliy fazilatlar shakllanishida oilaning muqaddasligi katta rol o'ynagan.

O'zbekistonda gender muammosining ilmiy-nazariy asoslari va uning tarixiy shakllanish jarayoni mamlakatning jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy hayotidagi muhim masalalardan biridir. Gender masalalari O'zbekistonning milliy va diniy qadriyatlari, shuningdek, turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda gender muammosini tadqiq qilishda, ayniqsa, oila munosabatlari va jamiyatdagi ayollar va erkaklarning o'rni tarixiy nuqtayi nazardan muhimdir.

Amir Temur va uning zurriyodlari o'zlarining ulug' fazilatlarini, ilm-ma'rifatga intilishlari, saltanatga sodiqlik va jamiyat manfaatlari yo'lidagi fidokorliklari bilan mashhur bo'lganlar. Temuriylar sulolasining boy madaniy va

ma'naviy merosi ularning davlatchilik an'alarini yaratishda oila muhitining ta'sirini yaqqol ko'rsatadi.

Temuriylar sulolasida ayollar ham muhim ijtimoiy va siyosiy rol o'ynagan. Ular nafaqat farzand tarbiyasida, balki davlat ishlarida, bilim va san'atning rivojida faol ishtirok etgan. Zebunnisobegim, Jahonorobegim, Gulbadanbegim kabi ulug' ayollar nafaqat oiladagi muhim shaxslar bo'lgan, balki davlat ishlariga ham aqlli maslahatlari va amaliy yordamlari bilan katta hissa qo'shganlar. Bu ayollar saltanatda va madaniyatda chuqur iz qoldirib, o'zining madaniy va ma'rifiy faoliyati bilan butun jamiyatga namunali bo'lishgan.

Amir Temur o'z avlodlarini aqlli, adolatli va donishmand etib tarbiyalashga katta e'tibor bergan. Bu jarayonda ularning ilm-ma'rifatga bo'lgan muhabbati, jamiyatga foyda keltirishga intilishi asosiy o'rin tutadi. Masalan, Mirzo Ulug'bekning ilmga bo'lgan qiziqishi va uning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi, aynan Temurning ta'lim-tarbiya jarayonidagi samarali ta'siridan kelib chiqqan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ашаева А.В. Рецепция античности как культурно-исторический дискурс в антиковедении второй половины XX - начала XXI вв.: диссертация ... кандидата исторических наук. – Казань, 2018. – 303 с.
2. Багдасаров Р.В. Творцы Священной истории. – Москва: Вече, 2010. – 463 с.
3. Ильин Е.П. Пол и гендер. – Питер, 2010. – 686 с.
4. Женщина. Гендер. Культура / Рос. лет. шк. по гендер. исслед., Моск. центр гендер. исслед. отв. ред. : З.А.Хоткина, Н.Л.Пушкарева, Е.И.Трофимова. – Москва: РЛШГИ, 1999. – 367 с.